TURIZM SOHASIDA MARKETING KOMMUNIKATSIYALARI VA KONTENT MARKETINGNING O'RNI	1697
Bozorov Samar Safarovich	
JANUBIY KOREYADA TIBBIY TURIZMNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH TAJRIBASI	1702
Azizova Nazira To'xtayevna	
MINTAQADA EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI TAHLILI	1708
Odilov Xamidillo Maxmudjon o'g'li	
"IMPROVEMENT OF ECONOMIC MECHANISMS FOR ENSURING RESOURCE ECONOMY IN THE FIELD OF COTTON GROWING IN THE AGRARIAN SECTOR.....	1715
Mirzaev Batir, Djumabaeva Nurzada Torebekovna	
TRANSCHEGARAVIY ELEKTRON TIJORATDA BOJXONA TO'LOVLARI HISOB VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI.....	1719
Makkamov Zokirjon Xusanboyevich	
TO'SIQSIZ TURIZMNING XUSUSIYATLARI VA UNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....	1723
Umurzakova D. E.	
СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА РАЗВИТИЯ МІСЕ-ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ	1729
Нарзуллаева Фариза Акмалевна	
MEVA-SABZAVOTCHILIK TARMOG'I – MILLIY IQTISODIYOTNING ASOSIY BO'G'INI SIFATIDA.....	1734
Israilova Xikoyat Musakulovna	
DAVR XARAJATLARI HISOB VA TAHLILI	1739
Sh.M. Ergashev	
KORXONALAR FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1744
Nosirov Sardor Xolmirzayevich	
THE ROLE OF DIGITAL CURRENCY IN ATTRACTING INVESTMENT.....	1750
Malikov Numonjon Kamalovich, Azimov Khumoyun Khamid ugli, Pardayev Khusniddin Jakhongir ugli	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ JOYLARI AHOLISI MEHNAT SALOHİYATIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARINI BAHOLASH	1758
Amaniyazova Rayxan Bayniyazovna	
SANOATNI MILLIY IQTISODIYOTDAGI O'RNI VA UNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	1762
Raxmatullayev Doston Asad o'g'li	
ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ФИНАНСОВОГО УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЕМ НА ОСНОВЕ КОМПЛЕКСНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО АНАЛИЗА.....	1766
Минутдинова Лилия Тагировна	
FUQAROLIK JURNALISTIKASINING GENDER JIHATLARI: XORIJIY AMALIYOTNING TAHLILI	1771
Zakirova Oisha Vohid qizi	
MINTAQA IQTISODIYOTINING BARQAROR RIVOJLANISHIDA SANOAT KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI.....	1776
Jalolova Muazzamxon Akbarjonovna	
ФОРМИРОВАНИЕ ФИНТЕХ-ЭКОСИСТЕМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНОГО РЫНКА.....	1780
Шамахмудова Шоира Олег кизи	
INNOVATSION LOYIHALARNI MOLİYALASHTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR.....	1786
Rafiyeva Zarina Husanovna	
ВЛИЯНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ В ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ НА ЗАНЯТОСТЬ НАСЕЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	1790
Акбарова Малика Ильхомовна	



INVESTITSION FAOLLIK VA JOZIBADORLIK KO'RSATKICHLARINI TAHLIL QILISH YO'NALISHLARI	1798
O'razaliyev Javlonbek O'rinboyevich	
ENVIRONMENTAL FACTORS CONTRIBUTING TO THE INCREASE IN CHRONIC RHEUMATIC DISEASES IN CHILDREN	1802
Kuldashv Sardor Furkatovich, Alpykarov Bakhodir Khudayberdiyevich, Umarova Khadicha Abdullayevna	
ФОРМИРОВАНИЕ КОНКУРЕНТНЫХ ПРЕИМУЩЕСТВ ТОВАРНОГО БРЕНДА В ЦИФРОВОЙ СРЕДЕ НА ОСНОВЕ НЕЙРОМАРКЕТИНГОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ (НА ПРИМЕРЕ QAND).....	1807
Юлдашев Жамшид Аббарович, Эрмуратова Камила Мисир кизи	
ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARINING BOZOR MUNOSOBATLARI SHAROITIDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARINING TAHLILI	1816
Turebekov Anvarbek Adilbekovich	
SHAHAR VA TUMANLARDA INKLYUZIV RIVOJLANISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1822
Xamroqulov M.J.	
O'ZBEKISTONDA VA G'ARB MAMLAKATLARIDA XAYRIYA YONDASHUVLARI: IJTIMOY, IQTISODIY VA SHAHSIY OMILLARNING QIYOSIY NAZARIY VA EMPIRIK TAHLILI.....	1826
Azimjon Musamuxamedov	
AHOLINI IJTIMOYIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA MOLIVAVIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI	1832
Zoya Xalekeyeva, Jamgirbaeva Nilufar Dauilbay qizi	
ЭКОНОМИКА ТРУДА И УПРАВЛЕНИЕ ПЕРСОНАЛОМ HR В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ	1837
Амирджанова Ситора Суннат кизи, Шаюсупова Наргиза Тургуновна, Исомухаммедов Исроил Исомухаммад ўғли, Маматкулов Ҳумоюн Бобир ўғли	
INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING ASOSIY MEKANIZMLARI VA USULLARI	1843
Jumaqulov Ozodbek Shuhrat o'g'li	
ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН НА ОСНОВЕ ПРИМЕНЕНИЯ «ФИНСКОГО ЧУДА»: АНАЛИЗ БАРЬЕРОВ ВНЕДРЕНИЯ И ПУТИ ИХ УСТРАНЕНИЯ.....	1847
Холмуратов Джахонгир Салимбек угли	
O'ZBEKISTONDA YALPI OMILLAR SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI IQTISODIY VA INSTITUTIONAL OMILLAR TAHLILI	1854
Djalilov Dostonbek Abduazizovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ФИНАНСИРОВАНИЯ ЖИЛИЩНОГО СТРОИТЕЛЬСТВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1859
Жаксымуратов Казбек Раджович, Кощанова Сахибжамал Бахытбаевна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ SIYOSATINING TRANSFORMATSIYASI: XORIJ TAJRIBASI.....	1865
Roza Xudayberganova	
RAQAMLI BANK XIZMATLARI ASOSIDA YASHIL MOLIVAVIY MAHSULOTLARNI KENGAYTIRISH ISTIQBOLLARI	1871
Kuvotova Dilnora Kaxramonovna	
КРЕАТИВНЫЕ ИНДУСТРИИ КАК ДРАЙВЕР ИННОВАЦИОННОГО РОСТА ЭКОНОМИКИ	1876
Бекимбетова Гулнора Маратовна	
MINTAQA IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIDA INVESTITSION JARAYONLARNING TA'SIRI DINAMIKASINI IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI	1882
Mahmudov Tursunpo'lat Davronovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA SEDANA (NIGELLA SATIVA L.) YETISHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	1889
Umurzakova Nargiza Maksetbay qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INFLYATSIYANI JILOVLASH VA BARQAROR NARX SHAKLLANTIRISH MEKANIZIMLARI	1894
Abdullayev Habibullo, Burhonova Gulnoza Kadam qizi	



ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA IJRO INTIZOMINI MUSTAHKAMLASHNING KONSTITUTSIYAVIY KAFOLATLARI.....	1899
E.U. Azizov, X.D. Sarabekov	
INNOVATSION RIVOJLANISH SHAROITIDA TURIZM SALOHİYATIDAN FOYDALANISH JARAYONLARINI TAKKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	1905
Sharipov Baxtiyor Mixlibayevich, Isayeva Nargiza Xamidovna	
BANK FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1910
Kasimov Baxtiyor Usmanovich	
XORAZM VILOYATI IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSİYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH TAHLILI.....	1914
Matniyazova Iqboloy Baxramovna	
BUZILGAN YERLARNI REKULTIVASIYA QILISH.....	1920
G'ayrat Aminovich Muxamedov	
QUM HUDUDLARIDAGI HUDUDIY-ISHLAB CHIQARISH MAJMUALARIDAGI TARMOQLARARO TASHQI TA'SIRLAR.....	1925
G'ayrat Aminovich Muxamedov	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA TURIZM FAOLIYATINI BOSHQARISH	1931
Ismailov Muhammadali Avdumumin o'g'li	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING BANDLIKKA TA'SIRI: EMPIRIK TAHLIL	1938
Sobirov Baxtiyor Karimjon o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ РАЗВИТИЯ ЗЕРНОВОГО ПРОИЗВОДСТВА В ПРОМЫШЛЕННОЙ СРЕДЕ.....	1944
Аъзамкулов Нурбек	
BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA BUDJET DAROMADLARINING AHAMIYATI	1948
Yaxshimuratova Xasiyat Xudaybergenovna	
KICHIK SANOAT KORXONALARIDA TEXNOLOGIK MODERNIZATSIYA QASHQADARYO TAJRIBASI	1952
Sultanov Dilshod	
UY XO'JALIKLARIDA CHORVACHILIK MAHSULOTLARINI YETISHTIRISHNI MOLIYALASHTIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH OMILLARI.....	1955
Odilov Umid Abduxalimovich	
ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА И УСТОЙЧИВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ: ТЕНДЕНЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ	1963
Абдувалиева Зилола Абдуллаевна, Барно Нурмухамедова Исмаиловна	
KORXONANING RAQOBAT USTUNLIGINI TA'MINLASHDA BOZOR SEGMENTATSIYASI STRATEGIYALARINING O'RNI	1976
Tursunxo'jayev Axrorxo'ja Jamoliddin o'g'li	
SMART TEXNOLOGIYALARNING OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQARISHGA TA'SIRI.....	1983
Axmedova Nafisa Amiriddin qizi	
SOLIQ TIZIMIDA NEFT-GAZ SANOATI KORXONALARINI SOLIQQA TORTISHDAGI MUOMMOLAR	1989
Jabborov Mashrab Ismoil o'g'li	
UZUMCHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA KLASSTER TIZIMINING AHAMIYATI.....	1993
Karimova Nilufar Sadridin qizi	
SOLIQ ORGANLARINING SOLIQ TO'LOVCHILAR BILAN HAMKORLIGI.....	1997
Yuldashev Yashnarjon Xolmirzaevich	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA ISHLAB CHIQARISH XARA JATLARINING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL QILISH YO'NALISHLARI.....	2001
Normatova Gulmira Xayrullayevna	
ACTIVITIES OF FREE ECONOMIC ZONES IN UZBEKISTAN.....	2007
Mamadiyev Elyor Akmalovich, Kongratbay Avezimbetovich Sharipov	
МИНЕРАЛЬНО-СЫРЬЕВЫЕ РЕСУРСЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ДЛЯ ПРОИЗВОДСТВА ЭЛЕКТРОДНЫХ ПОКРЫТИЙ ЭЛЕКТРОДОВ ДЛЯ ИЗНОСОСТОЙКОЙ НАПЛАВКИ.....	2012
Садыков Жaxonгир Насырджанович	



TOVAR-MODDIY RESURLAR HARAKATINI SAMARALI FOYDALANISH METODOLOGIYASI VA UNI ISHLAB CHIQISH BOSQICHLARI.....	2016
Pardayev Sherzod Xolmurodovich, Baxromov Bekzod Yusuf o'g'li	
ECONOMIC DIPLOMACY AND INVESTMENT RELATIONS BETWEEN THE REPUBLIC OF KOREA AND VIETNAM	2021
Abdusalomov Samandar Azizbek o'g'li, G'aniyev Zafarbek Ikrom o'g'li, Malikov Nu'monjon Kamalovich	
MINTAQA IQTISODIY RIVOJLANISH DINAMIKASINI INTEGRATSIYALASHGAN SUBYEKTLAR MODELI	2028
Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ TEKSHIRUVLARI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	2034
To'rayev Shavkat Shuxratovich	
UY BIZNESI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISH MEKANIZMLARI	2038
Ziyodullayev Navruzbek Botir o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA INNOVATSION BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	2043
Nuriddinov Ziyovuddinxon Zuxriddin o'g'li	
FERMER XO'JALIKLARIDA RAQAMLI MARKETINGNI QO'LLASHNING AMALIY JIHLTLARI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	2055
Nazarova Gulrux Umarjonovna	
KICHIK KORXONALARNING INNOVATSION FAOLLIIGI VA RAQOBATBARDOSHLIGI: RIVOJLANAYOTGAN IQTISODIYOTLAR MISOLIDA.....	2059
Otabek Azamatov Quyosh o'g'li	
КЛАСТЕР КАК МЕХАНИЗМ НАУЧНО-ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ИНТЕГРАЦИИ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ	2063
Раджабова Гавхархон Умаровна	
TIBBIY XIZMATLAR BOZORI SAMARADORLIGI VA AHOLI SALOMATLIGINI TA'MINLASH MASALALARI	2068
Sayitbayev Shermirza Datkamirzayevich	
YERLARDAN SAMARALI FOYDALANISHDA YER SOLIG'INING O'RNI VA AHAMIYATI	2073
Sh. J. Mamadjanov	
BO'LAJAK MARKETOLOGLARNING KASBIY KO'NIKMALARINI OSHIRISHNING XULQ-ATVOR VA PSIXOLOGIK JIHLTLARI	2076
Kamoliddin Mamatqulovich Ibodov	
SANOAT SOHASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI.....	2082
Vaydullayev Ilyos Hamidulla o'g'li	
TIJORAT BANKLARINING MOLIVAVIY KO'RSATKICHLARI ASOSIDA MUAMMOLI KREDITLAR ULUSHINI (NPL) EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH: PANEL MA'LUMOTLAR TAHLILI	2087
Ishniyazov Baxrom Normamatovich, Xurramov Eldor	
FARMASEVTIKA KORXONALARIDA SOTISH XARAJATLARI BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	2093
Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna	
OLIV TA'LIM MUASSASALARI ILMIY-TADQIQOT VA INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	2098
Djabbarova Zilola Saburovna	
MINTAQADA OZIY-OVQAT MAHSULOTLARI TA'MINOT ZANJIRINI OPTIMAL TARTIBGA SOLISHNING O'ZIGA XOS JIHLTLARI.....	2104
Bekjanov Dilmurad Yo'ldashovich	
DUNYO MAMLAKATLARINING ASOSIY IQTISODIY O'SISH OMILLARI VA SO'NGGI YILLARDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING ASOSIY MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI TAHLILI	2109
Rasulov Jamshid Shokir o'g'li	
APPLICATION OF MARKETING RESEARCH IN GREEN TOURISM REGIONS.....	2114
K.A. Musakhanov	



ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ФИНАНСОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УСЛОВИЯХ РЕФОРМИРОВАНИЯ ФИНАНСОВОГО РЫНКА УЗБЕКИСТАНА.....	2119
Хайдарова Нигинахон Шухрат кизи	
JAHONDA BANK XIZMATLARI BOZORIDA RAQAMLASHTIRISH JARAYONLARI VA RAQOBATNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI.....	2123
Ortiqov O. A.	
MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA SOLIQ TIZIMINING O'RNI VA AHAMIYATI.....	2130
Eshniyazova Yulduz Yuldashbayevna	
TA'LIM XIZMATLARI UCHUN JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG'I BO'YICHA IMTIYOZ QO'LLANILISHI MASALALARI.....	2134
Matrasulov Bahodir Erbutaevich, Chorshanbayev Umurzoq Qaynarovich	
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING MOLIYAVIY RISK BOSHQARUVIDAGI XALQARO VA MILLIY AMALIYOTI	2138
Abdiyev Otabek Botiraliyevich	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARIDA ISHLAB CHIQARISH ZAHIRALARINI BOSHQARISHNING XORIJIY Tajribalari	2145
Nasimov Baxtiyor Vasiyevich	
YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORLARNI SOLIQQA TORTISHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI.....	2153
Mahmadazizov Eldorjon Marifjon o'g'li	
KICHIK IQTISODIY ZONALARNING XORIJIY Tajribalari VA ULARNI O'ZBEKISTON SHAROITIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI	2157
Tursunov Sanjar Baxtiyarovich	
ПРОМЫШЛЕННЫЙ ТУРИЗМ В УЗБЕКИСТАНЕ: ПОТЕНЦИАЛ, ПРЕДПОЧТЕНИЯ И ПРОФОРИЕНТАЦИОННЫЕ ПЕРСПЕКТИВЫ	2160
Гольшева Елена Вячеславовна, Адылова Диёра Улугбековна	
ИQTISODIY TARMOQLARNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITIYA JALB QILISHNING MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	2170
Muhammadjonov Bobirmirzo Botirjon o'g'li	
TA'LIM MENEJMENTIDA MOLIYAVIY XATAR TUSHUNCHASI.....	2174
Pulatova M.B., A.T.Saldarbekov	
KICHIK BIZNES SOHASINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI IFODALOVCHI STATISTIK KO'RSATKICHLARNI BAHOLASH	2179
Arzikulov Otabek Ali o'g'li	
HUDUDLARNING TURIZM SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY AHOLINING YASHIL TURIZMDA ISHTIROKINI KENGAYTIRISH STRATEGIYALARI	2187
Hafizov Abdulla Olimjonovich	
O'ZBEKISTON HUDUDLARIDA ELEKTRON CHAKANA SAVDONING KENGAYISHI VA UNING ISTE'MOL TOVARLAR BOZORI RIVOJLANISHIDAGI ROLI	2193
Abdirashidov Ashirali	
O'ZBEKISTONDA SIFATLI IQTISODIY O'SISHNING MUAMMO VA ISTIQBOLLARI.....	2199
Pulatova Moxigul	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI BOZORINING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI VA INFRATUZILMANI SHAKLLANTIRISHNING MUAMMOLI MASALALARI	2205
Hudayberdiyev Furqat Imomnazar o'g'li	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OILAVIY TADBIRKORLIK FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHNI STATISTIK TAHLILI	2211
Sayfullayev Siddik Nosirovich, Valiev Xayrulla Ismatullaevich	
HUDUDIY MOLIYA BOSHQARUVIDA G'AZNACHILIK XIZMATINING NAZORAT VA TARTIBGA SOLISH MEKANIZMLARI.....	2217
Tangriyeva Farida Abduraimovna	
O'ZBEKISTON MOLIYA TIZIMIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI VA ULARNING SAMARADORLIKKA TA'SIRI	2222
Karjavova Xurshida Abdumalikovna	



O'ZBEKISTONDA SOLIQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH ORQALI XUFYONA IQTISODIYOTNI QISQARTIRISH.....	2227
Karimov Norboy G'anievich	
AVTOMOBIL YO'LLARI QURILISHI TADBIRKORLIGIDA DXSH MEXANIZMINI AMALGA OSHIRISH XUSUSIYATLARINING QIYOSIY TAHLILI.....	2231
Baxora Boymurodovna Sadinova, Farxod Baxriddinovich Axrorov	
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКИХ РЕСУРСОВ В ОБЕСПЕЧЕНИИ УСТОЙЧИВОЙ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ: ИНТЕГРАЦИЯ VRIO-ЛОГИКИ И ESG-ПОДХОДА.....	2237
Холмухамедова Феруза	
FRANSUZ TILIDA SAYYOHLIK TERMINLARINING MULTIMODAL VEKTOR XUSUSIYATLARI.....	2242
Abduaxadova Zilola Djamoliddinovna	
TADBIRKORLIK VA TADBIRKORLIK MUHITIGA NAZARIY QARASHLAR EVOLUTSIYASI.....	2245
Uzakov Sh.Sh.	
AGLOMERATSIYALARDA AQLLI MONITORING TIZIMINI JORIY ETISHNING USLUBIY JIHATLARI	2250
Mardonov Shohruh Shuhrat o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TAX FREE TIZIMINI XORIJ TAJRIBASI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	2255
Safarov G'iyosiddin Abdullayevich	
DAVLAT MOLIVAVIY NAZORATIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	2260
Temirov Muradjon Najmiddinovich	
SURXONDARYO VILOYATIDA DAVOLASH-SOG'LOMLASHTIRISH TURIZMI FAOLIYATINI O'RGANISHDA GEOGRAFIK AXBOROT TIZIMLARI (GAT)NI QO'LLASH MASALALARI	2266
Murtazayeva Gulrux Isabek qizi	
KORXONALARDA INSON KAPITALIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI: NAZARIYA, AMALIYOT VA GLOBAL BRENDLAR TAJRIBASI	2275
Axmedov Muzaffar Shokirjonovich	
ESTIMATING DEMAND AND SUPPLY FOR COTTON-TEXTILE CLUSTER PRODUCTS	2281
Nasimov Bakhtiyor Vasievich	
MOLIVAVIY HISOBOT AUDITINI REJALASHTIRISH JARAYONINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	2288
Xajimuratov Nizomjon Shukurullayevich	
BANKLAR MOLIVAVIY FAOLIYATIDA NATIJA SAMARADORLIGINI ANIQLASHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI	2292
Alimjanova Dilrabo Sobirjanovna	
XORAZM VILOYATIDA YOSHLAR BANDLIGINI OSHIRISH ORQALI INSON KAPITALIDAN SAMARALI FOYDALANISH MASALALARI	2297
Yusubboyeva Dinora Qudrat qizi	
O'ZBEKISTONDA BANKLARNI TRANSFORMATSIYA QILISH JARAYONINING JORIY HOLATI TAHLILI	2302
Umarova Malika Baxtiyarovna	
BARQAROR IQTISODIYOTNI TA'MINLASHDA SOLIQ SIYOSATINING SAMARADORLIGI	2311
Saitov Sirojiddin Abduvaliyevich	
ОСОБЕННОСТИ ИНВЕСТИЦИЙ В ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ В УСЛОВИЯХ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭКОНОМИКИ	2315
Саримсакова Малохат Хикматуллаевна	
IJARANING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI	2318
Djumayeva Guzal Axtamovna	
AGROSANOAT INNOVATION MARKETING FAOLIYATI YURITISH AMALIYOTINING MILLIY XUSUSIYATLARI VA USTUVORLIKLARI TAHLILI.....	2324
Tuksanov Ilxomjon Ismatovich	
BALIQCILIK SOHASIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING NAZARIY ASOSLARI VA O'ZBEKISTON IQTISODIY MUHITIDA UNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH	2332
Rajapov Xayrulla Bekdurdiyevich	



TIJORAT BANKLARINING KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATINI KREDITLASH AMALIYOTINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	2338
Melikov Otabek Maxmadaminovich	
RAQAMLI TURIZM TIZIMINI TASHKIL ETISH ASOSLARI VA RAQAMLASHTIRISHNING AHAMIYATI	2344
Najmiddinov Sulton Nurali o'g'li	
KORXONANI STRATEGIK BOSHQARISHDA KORXONAGA NISBATAN RAQOBAT BOSIMINI BAHOLASHNINING IMITATSION MODEL (OLMALIQ KON METALLURGIYA KOMBINATI AJ KORXONASI MISOLIDA)	2348
Nazarova Sitorabonu Sharofiddinovna	
DEVELOPMENT OF THE DIGITAL ECONOMY IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	2357
Ziyayeva Mukhtasar Mansurjanovna	
SANOAT ISHLAB CHIQARISHNING IQLIM O'ZGARISHLARIGA TA'SIRI	2362
Doniyorova Shaxnoza Doniyorovna	
FUNDAMENTALS OF FORMING ACCOUNTING POLICIES FOR LEASING COMPANIES BASED ON INTERNATIONAL FINANCIAL REPORTING STANDARDS	2368
Baxadirov Alisher Komilovich	
SUG'URTA KOMPANIYALARINING INVESTITSION FAOLIYATINI INNOVATSION ASOSDA RIVOJLANTIRISH.....	2368
Jahongir Gadayev, Zarif Axrorov	
DAVLATNING IJOBIY IMIJINI YARATISHDA TURIZM VA XALQ DIPLOMATIYASINING STRATEGIK O'RNI	2372
Kasimova Zilola G'ulomiddin qizi	
СПЕЦИФИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТОВАРНОЙ ПОЛИТИКИ НА ЗАРУБЕЖНЫХ РЫНКАХ	2386
Абдуллаев Азиз Курбанович	
XUSUSIY KAPITALNING OPTIMAL TARKIBINING AKSIYADORLIK JAMIYATLARI MOLIVAVIY BARQARORLIGIGA TA'SIRI.....	2391
Qurbonov Xayrilla	
BANK MAHSULOTLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI	2399
Xujamuratov Abbos Mardonovich	
O'ZBEKISTONDA ISLOM BANKCHILIGINI JORIY ETISHNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI	2404
Voxidov Oybek Roziqovich	
BOJXONA TO'LOVLARINI UNDIRILISHINING AMALDAGI HOLATI TAHLILI	2409
Muqimov Asrorjon Rasulovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT VA IQTISODIY XAVFSIZLIK SHAROITIDA DDOS HUJUMLARIGA QARSHI SUN'IY INTELLEKT AGENTLARINI QO'LLASH.....	2413
Bekov Sanjar Nigmandjonovich	
IQTISODIYOT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	2418
Begimova Dilshoda Komiljonovna	
SUG'URTA KOMPANIYALARIDA ESG INTEGRATSIYASI VA YASHIL SUG'URTA MAHSULOTLARINING RIVOJLANISH IMKONIYATLARI	2424
Kadirov Raxim Karimovch	
ECONOMIC ASSESSMENT OF MEASURES TO REDUCE THE SHORTAGE OF FREIGHT WAGONS IN RAILWAY TRANSPORT.....	2429
Egamberdieva Khurshidakhon Alisherovna	
TIJORAT BANKLARDA OPERATSION RISKLARNI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI	2435
Nishanov Shoazam Baxramovich	
O'ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLAR TADBIRKORLIGINI QO'LLAB-QUVVATLASH BO'YICHA DAVLAT SIYOSATI	2440
Maksumova Umidaxon Sadikjonovna	



ПРЕДПОСЫЛКИ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОГО ИНВЕСТИЦИОННОГО ПОТЕНЦИАЛА НА ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОМ ТРАНСПОРТЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	2445
Каракулов Фарход Зайпудинович	
O'ZBEKISTON TURIZM SANOATI MUVAFFAQIYATINI BAHOLASHNING XUSUSIYATLARI	2451
Esonboyev Baxodir Bakir o'g'li	
ESG TAMOIYILLARI ASOSIDA BIZNES SUBYEKTLARINING MOSLASHUVCHANLIGINI BOSHQARISH KONSEPSIYASI	2456
Joldasov Damir Rauajovich	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA DEPOZIT OPERATSIYALARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	2461
Maxmudova Dilafruz Raxmonovna	
DAVLAT BUDJETINING SOLIQLI DAROMADLARI TAHLILI.....	2466
Shirinov Sabir Erkinovich	
"YASHIL" BANKLARDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNING XALQARO TAJRIBASI	2472
Tulkinova Maftuna Anvarbek qizi	
O'ZBEKISTONDA G'AZNACHILIK XIZMATINI RIVOJLANTIRISHNING MOLIVAVIY MEKANIZMLARI	2478
Kasimova Gulyar Axmatovna, Mallaev Zokir Safarboevich	



O'ZBEKISTONDA G'AZNACHILIK XIZMATINI RIVOJLANTIRISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMLARI

Kasimova Gulyar Axmatovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

"Budjet hisobi va g'aznachilik" kafedrası professori, DSc

kasimovagulyora1960@gmail.ru

ORCID: 0000-0002-9997-6104

Mallaev Zokir Safarboevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada g'aznachilik xizmatining davlat moliyaviy barqarorligi va iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni hamda ahamiyati yoritilgan. Davlat budjetiga noto'g'ri va ortiqcha undirilgan daromadlarni qaytarish jarayonining moliyaviy barqarorlikka erishish, soliq tushumlarini oqilona taqsimlash hamda iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash bilan o'zaro bog'liqligi ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, g'aznachilik xizmatining moliyaviy mexanizmlarini raqamli texnologiyalar asosida yanada takomillashtirishga qaratilgan amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: davlat budjeti, ijtimoiy soha xarajatlari, budjet tashkiloti, raqamli iqtisodiyot, axborot texnologiyalari, elektron hujjat, elektron platformalar, soliqlar, davlat budjeti g'azna ijrosi, g'aznachilik tizimi.

Abstract. This article examines the role and significance of the treasury service in ensuring the financial stability and economic development of the state. The interrelation between the return of illegally and excessively collected revenues to the state budget, the achievement of financial stability, the rational distribution of tax revenues, and the support of economic development is scientifically analyzed. In addition, practical proposals and recommendations are developed to further improve the financial mechanisms of the treasury service based on digital technologies.

Key words: state budget, social sector expenditures, budgetary organization, digital economy, information technologies, electronic document, electronic platforms, taxes, treasury execution of the state budget, treasury system.

Аннотация. В данной статье показаны роль и значение казначейской службы в обеспечении финансовой стабильности и экономического развития государства. Проанализирована взаимосвязь между возвратом неправомерно и излишне собранных доходов в государственный бюджет, достижением финансовой стабильности, рациональным распределением налоговых поступлений и поддержкой экономического развития. Разработаны практические предложения и рекомендации по совершенствованию финансовых механизмов казначейской службы на основе цифровых технологий.

Ключевые слова: государственный бюджет, расходы социальной сферы, бюджетная организация, цифровая экономика, информационные технологии, электронный документ, электронные платформы, налоги, казначейское исполнение государственного бюджета, казначейская система.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli¹ farmoni maqsadlariga erishishda davlat budjeti mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanishni ta'minlash uchun davlat moliyaviy nazoratini yanada kuchaytirish, budjet mablag'larini taqsimlovchi vazirlik va idoralarda ichki audit tizimini takomillashtirish, shuningdek, budjet tashkilotlarining xarajatlarini amalga oshirishda jamoatchilik ishtiroki va g'aznachilik nazoratini kengaytirish nazarda tutilgan.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli Farmoni: <https://lex.uz/uz/docs/-6600413>



G'aznachilik xizmati har bir davlatning moliyaviy barqarorligi va iqtisodiy rivojlanishida asosiy o'rin tutadi. Uning vazifalari aholiga davlat ijtimoiy xizmatlarini ko'rsatish, budget mablag'larini samarali boshqarish, davlat xarajatlarini nazorat qilish hamda budget tizimidagi barqarorlikni ta'minlashni o'z ichiga oladi. G'aznachilik xizmati davlatning moliya va iqtisodiy siyosatini amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, budgetning g'azna ijrosini ta'minlash, davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirish, to'lovlarni bajarish, shuningdek, davlat qarzlarni boshqarishda asosiy rol o'ynaydi.

O'zbekistonda yillar davomida g'aznachilik xizmati tizimida muayyan o'zgarishlar va yangiliklar amalga oshirildi. G'aznachilik xizmatining turli moliyaviy mexanizmlari ishlab chiqildi hamda axborot texnologiyalari asosida takomillashtirilib, davlat budjeti uchun muhim bo'lgan daromadlarni shakllantirish va mablag'lardan samarali tarzda taqsimlash ta'minlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-iyuldagi "Budget mablag'laridan foydalanish ustidan moliyaviy nazoratni kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-100-son² farmoniga muvofiq, g'aznachilikning aniq maqsad va vazifalari, dastlabki va joriy nazorat hamda Davlat budjetining g'azna ijrosi sohasidagi vakolat va javobgarligi belgilandi. G'aznachilik boshqarmalari va bo'limlarining joriy nazorat bo'yicha vakolatlarini kengaytirish orqali qonunbuzilish holatlarining oldini olishga qaratilgan yangi tizim tatbiq etilmoqda [5].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

G'aznachilik xizmati tizimining moliyaviy mexanizmlari ikki asosiy yo'nalishda rivojlanadi, ya'ni budget daromadlari va xarajatlarini samarali boshqarish orqali amalga oshiriladi. Ushbu moliyaviy mexanizmlar davlat budjeti uchun moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va mamlakatdagi iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi. Davlat budjeti daromadlarini to'liq shakllantirish zaruriyati hamda xarajatlarning g'azna ijrosining mazmun-mohiyati turli iqtisodiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinayotganligini ta'kidlash lozim.

"Davlat budjetining kassa ijrosi, tushadigan daromadlarni turli darajadagi budjetlar o'rtasida taqsimlash, budjet tashkilotlarining va budjet mablag'larini oluvchilarning xarajatlar smetasi ijrosi hamda Davlat budjeti ijrosi to'g'risida hisobot tuzishdir. Shuningdek, turli darajadagi budjetlar daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi kassa uzilishlarining oldini olishni ta'minlaydigan Yagona g'aznachilik hisob raqamida bo'lgan Davlat budjeti mablag'larini boshqarishdir" [4].

E. Tendberg fikriga ko'ra, "har qanday mamlakatning g'aznachilik tizimi quyidagi asosiy tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi: yuridik va institutsional asos; qo'llab-quvvatlovchi tuzilma; moliyaviy rejalashtirish; majburiyatlarni nazorat qilish; qarzlarni boshqarish; daromadlarni jamlash va to'lovlarni boshqarish; ichki audit; budjet hisobi va hisobot" [9]. Stetsyunch Yu. N. fikriga ko'ra, barcha darajadagi budjet mablag'larini samarali boshqarish, daromadlar hisobini shakllantirish va xarajatlarni markazlashtirilgan taqsimlash, budjet ijrosi to'g'risida tezkor ma'lumot olish faqat bitta federal nazorat organining vakolatlari doirasida barcha moliyaviy resurslarni birlashtirish orqali amalga oshirilishi mumkin [10].

Fikrimcha, g'aznachilik xizmati tizimi har bir davlatning moliya va iqtisodiy siyosatini amalga oshirishda muhim o'rin tutadi. G'aznachilik xizmatining maqsadi davlat mablag'larini boshqarish, budjetni ijro etish va iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashdan iborat. G'aznachilik xizmati tizimi moliyaviy mexanizmlar orqali davlat budjeti daromadlarini shakllantirish va budjet xarajatlarini samarali boshqarishni ta'minlaydi. Moliyaviy mexanizmlarning samarali ishlashi va ularni amalga oshirishdagi natijadorlik davlatning moliyaviy barqarorligi hamda ijtimoiy taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

"Davlat budjetining g'azna ijrosi – bu hisob va axborot tizimiga asoslangan holda davlat tushumlarining g'azna hisobvaraqlariga to'planishi, undan davlat budjeti xarajatlarining maqsadli to'lab berilishi bilan davlat budjeti ijrosining amalga oshirilishi hamda davlat moliyaviy resurslarini samarali boshqarishdan iborat" [11].

"G'aznachilik tizimi o'z faoliyatini takomillashtirib borishda zamonaviy raqamli texnologiyalar yutuqlaridan keng foydalanishi lozim. Budget to'lovlari va smetalarni, elektron shartnomalar va boshqa hujjatlarni blokcheyn texnologiyasini qo'llagan holda himoyalash, ularni turli o'zgartirishlar kiritilishidan saqlashni ta'minlashi kerak. Bunday ishlarni amalga oshirish uchun g'aznachilik axborot tizimini raqamli iqtisodiyot sharoitida takomillashtirishda yangi innovatsion texnologiyalarni qo'llashni hisobga olgan holda uning infratuzilmasini tashkil etish taqozo etiladi" [7].

"G'aznachilik organlari tuzilishini shakllantirish va rivojlantirishga ta'sir qiluvchi omillardan biri davlatning ijtimoiy-madaniy rivojlanish darajasi bo'lib, ushbu omil ijtimoiy munosabatlarning barcha sohalarini qamrab oladi va budjetni ijro etish faoliyatining barcha jihatlariga ta'sir ko'rsatadi. Ushbu jarayonlar real daromad qismiga, ya'ni soliq daromadlarini yig'ish darajasi, budjetga to'lovlarning to'g'riligi va qonuniyligiga asoslangan holda

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-iyuldagi "Budget mablag'laridan foydalanish ustidan moliyaviy nazoratni kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-100-son Farmoni: <https://lex.uz/ru/docs/-7015258?query=hokimiyat>



boshlanadi hamda budget resurslaridan foydalanish natijasida ishlab chiqarilgan tovarlar, ishlar va xizmatlarni olishning yakuniy natijalariga erishish darajasi bilan yakunlanadi" [6].

Bizning fikrimizcha, g'aznachilik xizmati tizimida moliyaviy mexanizmlarning ishlash holatini tahlil qilish uchun quyidagi jihatlariga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- budget daromadlarini oshirish uchun davlat budgetiga tushumlarning to'liq tushishini ta'minlash yo'llarini tahlil qilish zarur;
- budget xarajatlarini maqbullashtirish uchun budget mablag'larining natijali va samarali sarflanishini ta'minlash lozim;
- davlat qarzi va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash maqsadida davlat qarzining o'sishi hamda uning qaytarilishini qat'iy nazorat qilish talab etiladi;
- ijtimoiy dasturlarni to'liq moliyalashtirish uchun ijtimoiy xarajatlar ustidan budget nazoratini kuchaytirish shart;
- budgetga noto'g'ri yoki ortiqcha undirilgan daromadlarni Davlat soliq organlari xulosalariga asoslangan holda qaytarish ishlarini yanada takomillashtirish zarur.

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, induksiya va deduksiya, abstrakt-mantiqiy fikrlash, guruhlash hamda qiyosiy taqqoslash usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

G'aznachilik xizmati tizimini rivojlantirishning moliyaviy mexanizmlari davlatning moliyaviy barqarorligini ta'minlash va budgetni samarali boshqarish uchun zarur vositalarni tashkil etadi. Ushbu mexanizmlar davlatning moliya va soliq siyosati, budget daromadlari va xarajatlari ijrosi, moliyalashtirish mexanizmi hamda iqtisodiyotning turli sohalariga zarur mablag'larni taqsimlashga xizmat qiladi.

Budget daromadlari davlatning iqtisodiy faoliyatida muhim o'rin tutadi. Moliyaviy mexanizmlarning asosiy maqsadi davlat budgetiga olingan daromadlarning samarali tarzda taqsimlanishini ta'minlashdan iborat. Bu, avvalo, soliqlarning to'g'ri va adolatli joriy etilishi, soliq muhiti va soliq tizimining takomillashtirilishini qamrab oladi.

Soliq tizimi davlat moliya tizimining asosiy qismi bo'lib, soliqlar davlat budgeti daromadlarining asosiy manbasini tashkil etadi. Soliqlarning to'g'ri va adolatli boshqarilishi davlat budgeti daromadlarini oshirishga yordam beradi. Soliq tizimi samarali yuritilganda, davlat budgetiga to'liq yig'ilgan mablag'larning taqsimlanishi ham samarali amalga oshiriladi. Davlatning moliyaviy mexanizmi soliq siyosatining prinsiplarini belgilash, soliq stavkalarini tartibga solish, soliq tizimini moslashtirish va soliq islohotlarini amalga oshirishga qaratiladi (1-rasm).



1-rasm. G'aznachilik xizmati tizimini rivojlantirishning asosiy moliyaviy mexanizmlari [14]

"Soliq siyosatida olib borilgan islohotlar natijasida soliq tizimining sezilarli darajada soddalashtirilishiga erishildi. 2025-yil davlat budgeti daromadlari asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va soliq-bojxona siyosatida



ko'zda tutilayotgan o'zgarishlardan kelib chiqqan holda ishlab chiqildi. 2025-yil uchun Davlat budjeti daromadlari 308-547 mlrd so'm yoki yalpi ichki mahsulotning 19,0 foizi miqdorida prognoz qilindi (2024-yilda 271-048 mlrd so'm yoki YAIMning 19,2 foizini tashkil qiladi)" [11]. Ushbu ko'rsatkich soliq tizimining rivojlanishi va yagona moliyaviy mexanizmlar orqali davlat budjeti daromadlarining o'sishini anglatadi.

"Budjet daromadlari ijrosida soliq organlarining funksiyasi tartibga soluvchi soliqlarni taqsimlash, noto'g'ri to'langan summalarni qaytarish va budjet daromadlari tushumini hisobga olishdan iborat. Davlat soliq xizmati organlari mamlakat hududida soliqlar, badallar, ajratmalar va boshqa yig'implarning tushishi to'g'risidagi axborotlarni umumlashtiradi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligiga taqdim qiladi" [7].

"O'zbekistonda soliq organining tegishli summani qaytarish to'g'risidagi qarori asosida rasmiylashtirilgan ortiqcha to'langan soliq summasini qaytarishga doir topshiriqnomaga soliq organi tomonidan budjet to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq soliq to'lovchiga qaytarib berishni amalga oshirish uchun g'aznachilikka yuboriladi" [3].

Jizzax viloyatida noto'g'ri va ortiqcha olingan daromadlarning qaytarilishi soliq tizimining samaradorligi va moliyaviy mexanizmlarning ishlashini baholashda muhim ahamiyatga ega. Davlat soliq organlarining xulosalariga asoslanib qaytariladigan daromadlar davlat moliyasining to'g'ri boshqarilishi va budjet ijrosidagi aniqlikni ta'minlaydi. Ushbu jarayon soliq tizimining oshkoraligini hamda ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyati bilan bog'liq muammolarni hal etishga qaratilgan chora-tadbirlarning samaradorligini ko'rsatadi. Noto'g'ri va ortiqcha olingan daromadlarning qaytarilishi moliyaviy barqarorlikka erishish, soliq tushumlarining to'g'ri taqsimlanishi va iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat budjeti tizimidagi bunday muammolarning bartaraf etilishi mamlakat moliyasiga bo'lgan ishonchni oshiradi va aholining ijtimoiy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Davlat soliq organlarining xulosalariga asoslanib ortiqcha olingan daromadlarni qaytarish jarayoni soliq tizimidagi kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etishga yordam beradi. Ushbu jarayonning samarali amalga oshirilishi soliq to'lovchilarning huquqlarini himoya qilish va ularning ishonchini oshirishga xizmat qiladi. Jizzax viloyatida 2020–2024-yillarda qaytarilgan ortiqcha va noto'g'ri olingan daromadlar dinamikasi qaytarish mexanizmlarining samaradorligi va moliyaviy mexanizmlarning rivojlanishini yaqqol aks ettiradi.

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, Jizzax viloyatida 2020–2024-yillarda qaytarilgan ortiqcha va noto'g'ri olingan daromadlar soni va summasi sezilarli darajada oshgan. 2020-yilda qaytarilgan daromadlar 9-651 ta shartnomani tashkil etib, ularning umumiy summasi 34-333,0 mln so'm bo'lgan. 2021-yilda shartnomalar soni 16-551 taga yetib, qaytarilgan daromadlar summasi 62-174,0 mln so'mni tashkil etgan. Natijada, qaytarilgan daromadlar hajmi 2021-yilda 1,8 barobarga oshgan. 2022-yilda Jizzax viloyatida ortiqcha va noto'g'ri olingan daromadlar 16-366 ta shartnoma bo'lib, ularning umumiy summasi 94-599,1 mln so'mni tashkil etgan. 2023-yilda qaytarilgan daromadlar 21-235 ta shartnomaga yetib, summasi 71-353,6 mln so'mni tashkil qilgan. 2024-yilda esa qaytarilgan daromadlar 21-599 ta shartnoma bo'lib, umumiy summasi 98-839,0 mln so'mni tashkil etgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2023-yilga nisbatan 1,4 barobarga oshgan.

Mazkur natijalar soliq organlarining xulosalariga asoslangan chora-tadbirlar hamda soliq tizimida amalga oshirilgan islohotlarning samaradorligini ko'rsatadi. 2020–2024-yillar davomida qaytarilgan daromadlar umumiy hajmi 2020-yilga nisbatan 11,1 barobarga oshgan. Ushbu ko'rsatkichlar soliq tizimidagi o'zgarishlar va moliyaviy mexanizmlarning samarali ishlayotganini tasdiqlaydi. Davlat soliq organlari tomonidan amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida qaytarilgan daromadlar moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda hamda davlat budjeti uchun muhim moliyaviy manba bo'lib qolmoqda.

G'aznachilik xizmati tizimini rivojlantirishning moliyaviy mexanizmlari orqali budjet xarajatlarning samarali va maqsadli taqsimlanishi, davlat mablag'larining to'g'ri yo'nalishlarda sarflanishi ta'minlanadi. Ushbu jarayon davlat budjeti xarajatlarini iqtisodiyot, ijtimoiy soha (ta'lim, sog'liqni saqlash, fan, madaniyat), aholini ijtimoiy himoyalash, investitsiya, boshqaruv va boshqa yo'nalishlarga yo'naltirish orqali amalga oshiriladi. Natijada aholining hayot sifati yaxshilanadi va iqtisodiy taraqqiyotga erishiladi. Moliyalashtirish mexanizmlari orqali ushbu sohalarga ajratiladigan mablag'lar samarali boshqariladi.

"Davlat budjetining 2025-yil uchun xarajatlari 344,6 trln so'm yoki YAIMning 21,1 foizi (2024-yilda 317,7 trln so'm yoki YAIMning 22,5 foizi) miqdorida prognoz qilindi. Iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish maqsadida tarmoq rivojlanish dasturlarini amalga oshirishga yo'naltiriladigan xarajatlarni oshirish rejalashtirilgan. 2025-yilda ijtimoiy xarajatlarga 178,2 trln so'm yo'naltiriladi, bu jami Davlat budjeti xarajatlarning 52 foizini tashkil etadi" [12].

"Valyuta mablag'lari hisobidan jalb qilingan xalqaro moliyaviy institutlar va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari kreditlarini qaytarish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlariga muvofiq Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladigan xalqaro moliyaviy institutlar va tashkilotlarga a'zolik badallarini to'lash, valyuta mablag'larini boshqarish, chet el valyutasidagi mablag'larni depozitlarga joylashtirish hamda budjet ssudalari va subsidiyalarini ajratish g'aznachilik zimmasidagi asosiy vazifalardan biridir" [4].

Davlat budjeti xarajatlarning g'azna ijrosi muhim moliyaviy mexanizm hisoblanadi. Ushbu mexanizm budjet mablag'larining maqsadga muvofiq va samarali taqsimlanishini ta'minlaydi. Budjet daromadlarini jamlash va



xarajatlarni boshqarishga qaratilgan moliyaviy mexanizmlar, shuningdek, budget mablag'larining belgilangan yo'nalishlar bo'yicha sarflanishini nazorat qilishga xizmat qiladi. Davlat budjeti xarajatlarini moliyalashtirish mexanizmi davlatning iqtisodiy rivojlanishini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ichki va tashqi qarzlarini boshqarish hamda davlat investitsiyalari bo'yicha qarorlar qabul qilishga qaratiladi(1-jadval).

1-jadval. Jizzax viloyati hududida noto'g'ri va ortiqcha olingan daromadlarning Davlat soliq organlari xulosalariga asosan qaytarilishi bo'yicha ma'lumot [13 (mln so'mda)]

T/r	Shahar va tumanlar nomi	Yillar									
		2020		2021		2022		2023		2024	
		Soni	Summasi	Soni	Summasi	Soni	Summasi	Soni	Summasi	Soni	Summasi
1	Arnasoy	116	144.4	454	595.7	458	1,034.1	583	1,237.1	621	1,711.2
2	Baxmal	400	940.3	799	1,754.1	1463	2,193.6	1604	2,385.4	1451	3,180.8
3	G'allaorol	702	1,255.7	1315	2,254.5	1567	25,909.9	2190	21,742.0	2172	10,833.3
4	Jizzax tumani	1348	2,040.4	1867	5,626.4	1975	4,294.3	2781	5,848.8	2499	7,848.1
5	Do'stlik	429	1,168.6	490	2,968.6	608	4,583.9	979	3,294.2	1068	3,527.8
6	Zomin	2349	1,660.9	4737	7,773.6	1672	6,975.5	2681	5,785.7	2095	8,569.9
7	Zarbodor	666	1,119.7	805	6,242.5	1015	7,274.6	1159	3,178.1	1063	4,598.2
8	Zafarobod	306	1,259.1	695	6,297.5	600	13,040.8	1166	2,837.9	776	3,518.7
9	Mirzacho'l	336	701.1	382	754.3	1004	1,762.6	907	1,764.9	554	1,108.7
10	Paxtakor	288	412.3	684	3,100.8	1273	2,516.9	1383	1,685.5	1140	2,361.2
11	Forish	235	620.0	1079	2,583.4	949	4,617.7	1274	3,212.1	1167	2,967.4
12	Yangiobod	74	109.1	164	362.9	281	319.6	426	805.2	405	460.3
13	Jizzax shahri	2304	22,418.0	3054	20,763.5	3465	18,243.6	3983	14,978.9	6393	34,008.0
14	Viloyat byudjeti	98	483.5	26	1,096.1	36	1,832.2	119	2,597.9	195	14,145.5
JAMI		9651	34333.0	16551	62174.0	16366	94599.1	21235	71353.6	21599	98839.0

Moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish davlatning iqtisodiy samaradorligini oshirish va barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega. Davlatning qarz siyosati davlat budjeti va moliyaviy tizim barqarorligini ta'minlashda muhim mexanizm hisoblanadi. Davlat qarzi, ichki va tashqi qarzlarini boshqarish, moliyaviy barqarorlikni saqlash hamda iqtisodiy xavf-xatarlarni kamaytirishga qaratilgan.

Qarzlarini samarali boshqarish, moliyaviy qarorlarni asosli qabul qilish va kredit olish shartlarini to'g'ri belgilash davlat moliyasining barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu mexanizm davlat budjeti uchun qo'shimcha daromad manbalarini yaratishni ham o'z ichiga oladi. Davlat sektorini moliyalashtirishni kengaytirish maqsadida xususiy sektor bilan hamkorlikni rivojlantirish, davlat aktivlaridan foydalanish, ularni ijaraga berish hamda xorijiy investorlarni jalb qilish kabi usullardan foydalanish mumkin. Bu esa davlat budjeti daromadlari uchun yangi moliyaviy manbalar yaratish, budgetni mustahkamlash va iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Hozirgi kunda g'aznachilik xizmati tizimining rivojlanishi uchun moliyaviy mexanizmlarning samaradorligini oshirish budget mablag'larining samarali taqsimlanishini ta'minlashga qaratilgan. Davlatning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda moliyaviy-iqtisodiy krizislarning oldini olishga yo'naltirilgan mexanizmlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu, avvalo, moliyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, mamlakat moliya tizimi ehtiyojlariga mos keluvchi mexanizmlarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etishni o'z ichiga oladi.

G'aznachilik xizmati tizimini rivojlantirishning moliyaviy mexanizmlari davlatning moliyaviy va iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Ushbu mexanizmlar budget daromadlarini samarali boshqarish, budget xarajatlarini oqilona taqsimlash, moliyalashtirish siyosatini amalga oshirish, qarzlarini boshqarish hamda ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirishni qamrab oladi. Davlatning iqtisodiy rivojlanishi va ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlash uchun mazkur mexanizmlarning samarali ishlashini ta'minlash zarur.

Bizning fikrimizcha, budget daromadlari va xarajatlarini samarali boshqarish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Har yili qaytarilgan ortiqcha daromadlar va joylashtirilgan mablag'lar summasining ortib borayotgani davlat moliyasi tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligini ko'rsatadi. Natijada soliqlar va budgetni samarali boshqarish davlat moliyasining barqarorligini saqlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, davlat soliq organlari faoliyatini yanada takomillashtirish zarur. Davlat soliq organlari tomonidan qabul qilingan xulosalar hamda ortiqcha olingan daromadlarning qaytarilishi soliq to'lovchilarning huquqlarini



himoya qilish va iqtisodiy xavf-xatarlarni kamaytirishga qaratilgan. Ushbu jarayon soliq organlari faoliyatining samaradorligini hamda budjet daromadlarini ta'minlashdagi hissasini yaqqol namoyon etadi.

Fikrimcha, g'aznachilik xizmati tizimining moliyaviy mexanizmlarini rivojlantirish uchun yanada takomillashtirilgan huquqiy-me'yoriy asoslarni yaratish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023-30-aprel. – 50 bet.
2. O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi. 2013-26-dekabr. www.lex.uz
3. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 2019-30-dekabr. www.lex.uz
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat budjetining g'azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 594-son Qarori. 2007-28-fevral.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Budjet mablag'laridan foydalanish ustidan moliyaviy nazoratni kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 100-son Farmoni. 2024-10-iyul.
6. Atajanov M.B. Raqamli iqtisodiyot sharoitida davlat budjeti g'azna ijrosini takomillashtirish yo'nalishlari. "Ilg'or iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali, № 3, 2024-yil. – B. 162–169.
7. Kasimova G.A. G'aznachilikning dasturiy komplekslari. Darslik. Toshkent, 2021. "Nihol print OK". – B. 74.
8. Kuchkarov T.S. Raqamli iqtisodiyot sharoitida O'zbekiston Respublikasi g'aznachiligi axborot tizimini takomillashtirish. Iqtisod fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent, 2019. – B. 20.
9. Tandberg E. Treasury System Design: A Value Chain Approach. IMF Working Paper, 2005, No. 05/153, 28 p. URL: <https://ssrn.com/abstract=888022>
10. Stetsyunch Yu.N. Rol' kaznacheystva v byudzhethnoy sisteme regiona. // Ekonomika novogo mira, № 1. – S. 84.
11. Eshnazarov T.Sh., Saxibov O.K. Budjet g'azna ijrosini takomillashtirish istiqbollari. "Moliya" ilmiy elektron jurnali, № 11, 2016-yil. – B. 26.
12. Fuqarolar uchun budjet – 2025 loyiha. https://api.mf.uz/media/document_files/Budjet_P_25_uz.pdf
13. G'aznachilik xizmati qo'mitasining Jizzax viloyati boshqarmasi ma'lumotlari.
14. Tadqiqotlar bo'yicha o'rganilgan adabiyotlar asosida tadqiqotchilar tomonidan tayyorlangan.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>